

**IMOM ABU JA'FAR AHMAD IBN MUHAMMAD AT-TAHOVIY VA U
ZOTNING "SHARHU MA'ONIL OSOR" ASARI HAQIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10046700>

Avliyoxonov Avvalxon Obidxon o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bitiruvchisi
28.09.2023

Hanafiy mazhabida juda katta o'ringa ega bo'lgan, "Sharhu ma'anil osor" asari muallifi Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammad ibn Saloma ibn Salama al-Azdiy al-Hajriyat-Tahoviyl Misrning yuqori qismidagi Tahiya, "Kitob al-ansob" muallifi as-Sam'oniy fikricha esa Misrning pastki tarafidagi Taho qishlog'ida tug'ilgan. Ammo «Kitob al-ansob» muallifi as-Sam'oniy rahimahulloh fikricha Misrning pastki tarafidagi Taho qishlog'ida tug'ilgan. Mashhur Azd qabilasining Hajr urug'idan bo'lganligi bois odatda nasabiga ular ham qo'shiladi. Abu Ja'far at-Tahoviyl rahimahullohning tug'ilgan yillarini ba'zilar 238/853 yil deb xato ko'rsatgan bo'lsa-da, lekin aksar manbalarda uni 229 yil rabi' al-avval oyi (843 yil noyabr) da tug'ilganlari alohida qayd qilingan⁹⁵.

Abu Ja'farat-Tahoviyl yoshligida boshlang'ich ta'limni tog'asi, ya'ni onasining ukasi shofi'iylik mazhabining mashhur faqiji Ismoil ibn Yahyo al-Muzaniy oldida o'zlashtiradi. U yoshligidan hanafiy faqihlarining asarlarini ko'plab mutolaa qilardi. Sababi tog'asi Abu Hanifa va uning as'hoblarining kitoblarini ko'p o'qiyotgan jiyanining ishidan jahli chiqqan Imom al-Muzaniy: "Sendan hech narsa chiqmaydi!" deb qasam ichib yuboradi. Aslida Imom al-Muzaniyning o'zi ham hanafiyarning asarlarini ko'p o'qir edi.

Muhammad ibn Ahmadash-Shurutiyl Abu Ja'farat-Tahoviylidan "Nimaga mazhabingizni o'zgartirdingiz?" deb so'raganida, u: "Tog'am doim Abu Hanifa va uning as'hoblari kitoblariga qarayvergani sababli", degan edi.

Doktor Abdurrahmon Umayra "Sharh al-aqida at-Tahoviya"ga yozgan ta'liqi muqaddimasida quyidagilarni yozgan: "Bizning fikrimizcha u kishining Abu Hanifa rahmatullohning mazhabiga o'tishining asosiy sababi, o'sha vaqttagi odamlar zehnida bu mazhab haqida juda yaxshi tasavvur bor edi. Chunki, bu mazhab keng fikrli bo'lishi bilan birga hujjati ham kuchli edi. Yangi paydo bo'lgan masalalarda tez va qoniqarli javob berilardi. Shu kabi omillar Tahoviylga ta'sir qilgan".

⁹⁵ <https://oliymahad.uz/30554>

Hanafiylik mazhabiga ko'ngil qo'yanligiga yana bir sabab Abu Ja'farat-Tahoviyning onasi unga homiladorlikning so'nggi oylarida vafot qilgan. Qornida bola qimirlayotganini sezgan hanafiy olimlar qornini kesib, bolani chiqarib olishga fatvo beradilar. Imam al-Muzaniy boshliq shofi'iy olimlari bunday qilmaslikni yoqlab chiqadilar. Hanafiylar qozisi, faqihlari bilan birga qattiq turib olganliklari sababli Abu Ja'farat-Tahoviy tirik qolgan edi.

Keyinchalik Abu Ja'farat-Tahoviy yurtining eng taniqli faqiji, mushkul savollarga qiyalmay javob beruvchi iqtidor sohibi, munozaralarda hanafiylikning eng kuchli himoyachisi bo'lib yetishdi. U o'zining fiqhiy matn kitobi "Muxtasar"ni yozgan vaqtida: "Agar tog'am bularni ko'rGANIDA, qasamining buzilgani uchun kafforat to'lagan bo'lardi!" deb faxrlangan edi. Abu Ja'farat-Tahoviy fiqhni asosan Abu Ja'far Ahmad ibn Imron (vafoti 280/893)dan oladi. So'ng Shomga safar qilib, qozi al-quzot Abu Hozim Abdulhamid ibn Abdulaziz (vafoti 292/905) oldida ham tahsil oladi. Bu qozikalon hanafiy olimi Muhammardash-Shayboniy (749-805)ning shogirdlaridan Iso ibn Abbon (vafoti 221/835)ning shogirdi edi. Keyin Horun ibn Said al-Irbiliy (IX asri kkinchi yarmi)dan ham saboq olgan.

Abu Ja'far at-Tahoviy, ayniqsa, hadisshunoslik sohasida mahorat kasb qiladi. Misrda juda ko'p muhaddislardan hadislar tinglab, imlo qiladi va hifz qilib oladi. Alloma Jaloliddin as-Suyuti (1445-1505) "Husn al-muhozara" asarida Abu Ja'farat-Tahoviyni hadis hofizlaridan biri, hadis rivoyatida ishonchli va mahkam zot, faqih, undan so'ng unga o'xhashi chiqmagan, Misrdagi hanafiyarning boshlig'i singari maqtovlar bilan zikr qilgan. Uning hadis sohasidagi ustozlaridan Ali ibn Ma'bad ibn Nuh al-Bag'dodiy (vafoti 259/873), Horun ibn Said al-Ilyliy (787-867), Yunus ibn Abdula'lo Abu Muso as-Sadafiy (787-877), ar-Rabi' ibn Sulaymon al-Muazzin al-Jiyyiy (797-869), Abu Bakra Bakkor ibn Qutayba al-Bakroviy (798-884), Muhammad ibn al-HajjojAbdulloh ibn Sulaymon al-Hazramiy (817-910), Bahr ibn Nasr al-Xavloniy (798-880), Muhammad ibn Xuzayma (838-924) kabi ishonchli hadis roviylarini ko'rsatish mumkin.

Abu Ja'farat-Tahoviy muhaddis ustoz sifatida Abu Bakr al-Burda'iy (vafoti 350/961), "Mo'jam"lar sohibi muhaddis Abulqosim Sulaymon at-Tabaroniy (873-973), "Maoniy al-asor"ni ustozidan eshitib, naql qilgan Abu Bakr Muhammad ibn Ibrohim al-Muqirriy (898-991), "Aqidatat-Tahoviy"ni birinchi rivoyat qilgan Maymun ibn Hamza (X asr), Yusuf ibn Qosim al-Miyonji (901-985), to'qqiz nafar G'andar laqabli hadis roviylaridan ikkinchisi Muhammad ibn Ja'far G'andar al-Varroq (vafoti 370/980) singari olimlarga saboq bergen.

Ibn Abdulbarr (978-1071) aytgan: "Abu Ja'farat-Tahoviy ko'falik (Abu Hanifa)ning mazhabida bo'lib, barcha ulamolarning mazhablariga olim edi", degan.

Abu Ja'farat-Tahoviy shu zaylda hanafiy faqihlaridan mujtahidi muntasab darajasigacha yetadi. Bu Imomi A'zamdan keyingi uning Abu Yusuf (731-798), Muhammadash-Shayboniy (749-805) kabi as'hoblarining tabaqasi edi. Ba'zi tadqiqotchilar uni uchinchi tabaqa faqihlari qatoriga qo'yadilar.

Hanafiy mazhabining ko'zga ko'ringan va juda ko'plab qimmali kitoblar muallifi bo'lган Tahavi islam ilmlarining ko'plab sohalarida ijod qilgan nodir olimlarimizdandir. **Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammad at-Tahoviy. 238 hijriy/858 milodiy yilda Misrning Taho nomli qishlog'ida tug'ilib, 321 hijriy/933 milodiy yilda Qohirada vafot etganlar.**

Hanafiy mujtahidlarining eng yiriklaridan. Tafsir, hadis, fiqh, aqoid, tarix va boshqa fanlarda zamonasining peshvosi bo'lganlar. Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniyning biriga yoki ikkalasiga yoki uchallasiga qarshi turgan masalalari aniqlanib, ijтиҳод qilishda qanday yo'l tutganini tushunishga harakat qilindi⁹⁶. Buni amalga oshirishda Tahoviy imomlarga nisbat bergen qarashlarning boshqa manbalardan olinganligini tasdiqlash va Tahoviy qanday fikrni ilgari surganligini aniqlash maqsadida muhokama qilingan mavzu yuzasidan imomlarning fikrlarini aniqlashga harakat qilindi. qarashlari yo'nalishini kuzatish uchun boshqa asarlarida tegishli masalalar haqidadir.

Har bir yetuk olim inson yuqori darajaga yetishida, albatta, unga ustoz lozim. Shuningdek, Imom Tahoviyni mana shunday yetuk darajaga yetishlarida u kishining ustozlarining o'rni juda katta.

1. Imom, alloma, millat faqiji, zohidlar bayrog'i, Tahoviyning tog'alari Ismoil ibn Yahyo ibn Ismoil ibn Amr ibn Muslim al-Muzaniy al-Misriy(vafoti hijriy 264-yil). Tahoviy u kishidan ko'plab hadislarni eshitgan. Imom Shofe'iyning sunanlarini ham tog'alaridan rivoyat qilgan. Ibn Yunus aytadi: "Tahoviy tog'asi Muzaniydan ko'p hadislar eshitgan. Imom Shofe'iyning musnadlarini u kishidan rivoyat qilgan". Badriddin Ayniy (vafoti hijriy 855-yil)ham: "U kishining o'z tog'asidan qilgan rivoyatlari o'z asarlarida ko'pdir. Xususan, "Sharhu ma'onilosor" asarida ham. Imom Shofe'iyning musnadlarini rivoyat qiladigan ko'pchilik insonlar Imom Tahoviy orqali rivoyat qiladilar", deydi.

2. Imom, faqih, muhaddis, hofiz, alloma, hanafiyalar Shayxi Abu Ja'far Ahmad ibn Abu Imron Muso ibn Iso al-Bag'dodiy (vafoti hijriy 270-yil). Bu kishi Abu Yusuf

⁹⁶<https://www.academia.edu>

va Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniylarning as'holalaridan fiqhni ta'lif olgan. Misrga Abu Ayyub bilan hijriy 270-yillar atrofida kelishgan. Tahoviy bu kishidan yigirma yillarcha fiqhni o'rgangan. Shu muddat ichida hanafiy mazhabini to'liq o'rgangan.

3. Faqih, alloma, qozilar qozisi, hanafiy olim Abu Xozim Abdulhamid ibn Abdulaziz as-Sakuniy al-Basriy (vafoti hijriy 292-yil), so'ng al-Bag'dodiy. Shom, Kufa va Bog'dod shaharlarida qozilik qilgan. 267-yil Shomga kelganida Tahoviy u kishidan fiqhni o'rganganlar.

4. Katta qozi, alloma, muhaddis Abu Bakra Bakkor ibn Qutayba al-Basriy (vafoti hijriy 270-yil) hijriy 246-yil jumadul oxirning sakkizinchı kuni xalifa Mutavakkil tomonidan Misrga qozi etib ta'yinlangan. Tahoviy bu kishidan ko'proq hadisni o'rgangan.

5. Qozi, alloma, muhaddis, Imom Shofe'iy as'holalaridan bo'lgan Abu Ubayd Aliy ibn al-Husayn ibn Harb ibn Iso al-Bog'dodiy (vafoti hijriy 319-yil).

6. Imom, hofiz Abu Abdurrahmon Ahmad ibn Shu'ayb ibn Aliy ibn Sinon ibn Bahr al-Xurosoniy an-Nasoiy (vafoti hijriy 303-yil)⁹⁷.

Abu Ja'farat-Tahoviy Misrda 321 yil 5 zulqa'da (933 yil 27 oktabr)da vafot qilgan.

Abu Ja'far Tahoviy umri davomida islom fanlari hadis, fiqh, aqida, Qur'on ilmlarini mukammal o'rghanib, o'zidan bir qancha asarlar meros qoldirgan qomusiy olim hisoblanadi. Quyida u kishi ta'lif etgan asarlarini zikr kilamiz:

1. "Aqidatu-t-Tahoviy". Asarning to'liq nomi "Aqidatu-t-Tahovi bayonu e'tiqodi ahli-s-sunna va-l-jamoa" bo'lib, Abu Ja'far Tahoviy unda sahabalar va ulardan keyin o'tgan Imom Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad ibn Hasan Shayboniy singari olimlarning aqiydasini jamlagan. Kitob ko'p bora chop etilgan bo'lib, islom olami, xossatan yurtimizda ham o'quv qo'llanma sifatida qabul kilingan. Asarga ko'plab ulamolar sharh va ta'liflar bitishgan⁹⁸.

2. "Ahkomu-l-Qur'on". Kitob haqida doktor Sa'du-d-din bir qancha malumotlar berib 20 juz ekanini aytib o'tgan.⁹⁹ Xozir bu kitob Turkiyaning shimolida joylashgan "Vaziri kubro" shaharidagi "Vazir kubro" kutubxonasida 814-raqam ostida saqlanadi¹⁰⁰. Asarning doktor Sa'du-d-din tomonidan tahqiq qilingan nashri 1996 yil 2 jilda Turkiyaning Islomiy ishlar markazi tomonidan nashr qilingan¹⁰¹.

⁹⁷ <https://maxdum.uz/imom-Tahoviyining-ustozlari>

⁹⁸ Tahoviy. Matnu-l-aqidati-t-Tahoviya bayanu aqidati ahli-s-sunna va-l-jamoa. Bayrut: Doru Ibn Hazm, 1995. B. 6-7.

⁹⁹ Xolid Maximud ar-Ribat. Tuxfatu-l-axyor bitartibi sharhi Mushkili-l-osor. Ar-Riyoz:1999. J. 1. -b-25

¹⁰⁰ Doktor, Abdulloh Nazir Ahmad. Abu Ja'far Tahoviy. -Damashq. Doru-l-qalam, 1991. -B. 200.

¹⁰¹ Tahoviy. Sa'du-d-din Aynol tahqiqi. Ahkamu-l-Kur'on. Turkiya: Markazu-l-buxusu-lislamiy, 1996. -B. 36

Asarning yozilish uslubiga keladigan bo'lsak, "Ahkomu-l-Qur'on" sohasida yozilgan birinchi tafsirlardan bo'lgani uchun ham Imom Tahoviy oyatlarni mavzuga qarab tartiblagan. Masalan, Qur'oni karimdag'i tahoratga aloqador barcha oyatlar "Tahorat kitobi" da jamlab keltirilgan bo'lib, unda oyatlar va suralar tartibiga rioya qilinmagan. Har qanday fiqhiy mavzuga mana shunday uslubda yondoshilgan. Hozirgi kunimizda bu uslubdagi tafsirlarni "At-tafsiru-l-mavzu'iy" (mavzularga qarab tafsir qilish). deb nomlanadi. Aslida, "Ahkomu-l-Qur'on" tafsirlaridagi uslub bunday emas, balki har bir suradagi hukmiy oyatlarni o'zining tartibida keltirilib tafsir qilinadi.

Olimning asardagi manhaji o'sha zamon mufassirlarining shayxi sanalgan Ibn Jarir Tabariyning (vaf. 310/922 y.) uslubiga o'xshab ketadi. Ya'ni, oyatlarni tafsir qilishda sahoba va tobein (r.a.)lardan rivoyat kilingan asarlar va arab lug'atidan foydalanilgan¹⁰².

3. "Sharh ma'onil-osor". Asar ikki marta nashr qilingan bo'lib, birinchi Hindistondagi "Lakhnav" bosmaxonasida 1882-1884 yillarda ikki jildli, ikkinchi marta Qohirada "Anvaru-l-Muhammadiya" bosmaxonasida Muhammad Zuhriy Najjor va Muhammad Sayd Jodu-l-Haq tahqiqi ostida 1966-yil to'rt jildli holda chop etilgan. Asarga ko'plab sharh va muxtasarlar bitilgan¹⁰³. O'rni kelganda bu asar kelganda bu asar haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

4. "Ixtilafu-l-Ulamo". Bu kitob juda katta hajmga ega bo'lib, Tahoviyning hayotini tavsiflagan olimlar, asar 130 juzdan iborat ekanini ta'kidlashgan. Asar fiqh borasida ulamolarning olib borgan tortishuvularini o'z ichiga qamragan. Abu Bakr Jassos (vaf. 370/981 y.) uni muxtasar qilgan. Bir necha juzlari Istambuldagi "Jorulloh Valiyyn-d-Din" va Misr kutubxonalarida saqlinadi. Asar doktor Abdulloh Nazir Ahmad tahqiqi ostida 1417 (1995) yil "Bashairu-l-Islamiyya" bosmaxonasida 5 juzdan iborat shaklda nashr qilingan¹⁰⁴.

5. "At-Tasviya bayna haddasana va axbarana". Imom Tahoviy yashagan asrda hadis ilmi istilohlarining ayrimlari borasida munoqashalar yuzaga kelgan bo'lib, asar ana shu qo'zgalgan savollarga javob o'laroq yozilgan. Hidistonda shayx Muhammad Aziz Shams tahqiqi ostida 1310-1892 yilda nashr qilingan¹⁰⁵.

Mazkur kitobning ikki qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, ulardan biri Irlandiyaning Dublin shahridagi "Chester Bitti" kutubxonasida 3495-raqam ostida, ikkinchisi Suriyaning Damashq shahri "Zohiriya" kutubxonasida saklanib kelmokda.

¹⁰² Doktor Abdulloh Nazir Ahmad. Abu Ja'far Tahoviy. -Damashq. Doru-l-qalam, 1991. -B. 203.

¹⁰³ Doktor Abdulloh Nazir Ahmad. Abu Ja'far Tahoviy. -Damashq. Doru-l-qalam, 1991. -B. 221.

¹⁰⁴ Tahoviy. Abdulloh Nazir Ahmad. Muxtasar. Ixtilafu-l-ulamo. -Bayrut: Doru-l-bashari-lislamiy, 1995.

¹⁰⁵ Tahoviy. Ash-shurutu-s-sag'ir. – Iroq: Devonu-l-vaqf, 1974. -B. 20.

Ibn Abdulbarr uni talxis shakliga keltirgan va "Jami'u bayani-l-ilmi va fazlihi", deb nomlagan¹⁰⁶.

Bu risola o'quv qo'llanma shaklida bo'lib, u "siyg'u-l-ado", ya'ni rivoyatda qanday so'zlar ishlatilishi va ular nima ma'noni anglatishiga hamda tolib o'z shayxi huzurida hadis bo'yicha ijoza olish uchun o'qish jarayonida kaysi iborani ishlatishi lozimligiga bag'ishlangan. Bu borada uch xil fikr mavjud:

1) "Haddasana" (bizga hadis aytdi) ham "axbarana" (bizga xabar berdi) ham ishlatilishi mumkin. Bu Molik ibn Anas, Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad Shayboniylarning fikridir.

2) Faqat "axbarona" (bizga xabar berdi) ishlatilishi lozim. "Haddasana" (bizga hadis aytdi), deb shayx o'zi o'qiyotganida ishlatadi.

3) Bu o'rinda xalis "qoro'tu ala fulanin" (falonchiga o'qib berdim) yoki "haddasana" (bizga hadis aytib berdi) deb boshlab rivoyat qilinishi kerak. "Axbarana" (bizga xabar berdi) deyish mumkin emas. Tahoviy yuqoridagilardan birinchi fikr to'g'riliqini misollar bilan isbotlaydi. Bunda u yettita oyatdan hamda sakkizta hadisdan dalil keltiradi.

Bu kitob ham chop etilmagan. Faqtgina Abu Abdu-l-Barr Molikiy o'zining "Jomi'u bayani-l-ilm va fazlihi" nomli asarida uning umumiy mavzusi haqida to'xtalib o'tgan¹⁰⁷.

6. "Mushkilu-l-osor". Asarning tahqiq va taxrij etgan Shuayb al-Arnaut "Fayzulloh Afandi" kutubxonasida 273-279-raqamli 7 jilddan iborat ekanini ta'kidlaydi¹⁰⁸. Asarning birinchi juzi Shuayb al-Arnaut tahqiqi ostida 1408 (1988)-yili "Bayrut"da nashr qilingan.

7. "Muxtasaru-t-Taxoviy". Asar hanafiy mazhabi fiqhida qisqa va lo'nda bayon qilingan muxtasarlarning muqaddam yozilganlaridan hisoblanadi. U mazhabdagi eng kerakli va mo'tabar masalalarni o'zida jamlagan. Uni o'qigan kishi boshqa muxtasarlarda uchramaydigan nodir masalalarni topadi. Tahoviy bu asarini ellik uch bobga ajratgan. Tahorat bobidan boshlab karohiyat bobi bilan tamomlagan. Abu Hanifa, Imom Abu Yuusuf va Imom Muhammadlar o'rtasidagi ixtiloflarining orasidan kupincha uzi ustun deb bilganlarini tanlab bayon kilgan. Kamdan-kam holatda dalillari va hanafiylardan boshqalarning fikrini aytib o'tadi¹⁰⁹.

¹⁰⁶ Abdulmajid Mahmud. Abu Jafa'r Tahoviy va asaruxu fi-l-hadis. Qohira: Maktabatu-l-arabiyya, 1970. -5. 279.

¹⁰⁷ Sagdiyev H. Abu Ja'far Tahoviyning "Aqidatu-t-Tahoviy" asari va uning sharhlari – hanafiylik ta'limotiga oid muhim manba. -B. 47.

¹⁰⁸ Tahoviy. Shuayb Arnaut tahqiqi. Sharxu Mushkili-l-Osor. -Bayrut: Muassasatu-r-Risala, 1994. -B. 7.

¹⁰⁹ Ahmad ibn Muhammad an-Naqib. Al-mazhabu-l-hanafiy. -Riyod: Maktabatu-r-rashid, 2001. -B. 463.

Imom Tahoviy bu asarining muqaddimasida shunday degan: "Bu kitobimda fikhning shunday turlarini jamladimki, uni bilmaslik durust bo'lmaydi. Masalalarga beriladigan javoblarni Imom Abu Hanifa, imom Abu Yusuf va Imom Muhammadlarning so'zlari asosida bayon qildim".

Asar Xaydaroboddagi (Hindiston) "Ihyou-l-maorifi-n-Nu'moniya" tomonidan 1370/1951 yili Abu-l-Vafo Afg'oniy tahqiqi ostida nashr etilgan¹¹⁰.

Uning bir qismi Misrdagi (Qohira) "Al-azhar" kutubxonasida xamda bir kismi Turkiyadagi Ostona (Istanbulning 1930 yildan oldingi turklar ishlatgan nomi) shaxrida, hozirgi "Sulaymoniya" kutubxonasining "Jorullox" bo'limida va "Xalq" (sobiq milliy) kutubxonasining "Fayzulloh" bo'limida saqlanadi¹¹¹.

8. "Ash-Shurutu-s-Sog'ir". Olim bu asarida muamalot masalalarini bayon qilgan bo'lib, o'ttiz uch sahifada jamlagan va savdo-sotiq masalalaridan boshlagan. Asar hanafiy mazhabida muhim manabalaridan biri sanaladi. Uning qo'lyozma nusxasi Turkiyadagi "Fayzulloh" kutubxonasi, 1033-raqami ostida saqlanadi. U 122 sahifadan iborat bo'lib, 892/1487 yilga mansub, Asar Iroqdagi vaqf devoni boshchiligida 1394 (1974) yilda nashr etilgan¹¹².

9. "Ash-Shurutu-l-Kabir". Bu asar 40 juz bo'lib, shulardan faqatgina ikki juzi "Mol-mulk egaligi" hamda "Vasiylik" qismlari bizgacha yetib kelgan. Asarning "Mol-mulk egaligi" juzi Turkiyadagi "Shahid Ali" kutubxonasida 881-raqam ostida saklanadi. "Vasiylik" juzi esa shu kutubxonaning 288-raqami bilan belgilangan. Asarning ikkala kismi xam xijriy beshinchli asrga mansub¹¹³.

Uning ikki nusxasi "Doru-l-kutubi-l-Misriya" kutubxonasida hanafiy fiqhi bo'limida 139 va 140 inventar raqamlari bilan saqlanadi. Ushbu ikki nusxada "Azkaru-l-huquq va-r-ruhun" (Haqlar va garovlarni eslatish) bobi bor. Sharqshunos olim Yozef Shaxt undan "Izkaru-l-xukuk va- r-ruxun" (1926-27 yillar) va "Shuf'a" (qo'shnichilik va sherikchilik haqqi) (1929-30 yillar) boblarini nashr ettingan. Izkaru-l-xuquq va-r-ruxun" bobiga Abu Ja'far uslubiga ko'ra ko'shimcha kiritilgan¹¹⁴.

10. "Sunanu-sh-Shofe'iy". (Sunanu ma'sura). Asardagi ma'lumotlarni Imom Tahoviy tog'asi Muzaniydan, u esa Imom Shofe'iydan rivoyat qilgan hadislar to'plamini keltirgan. 1897-yilda Misr bosmaxonasida, so'ngra 1985-yil Bayrutda

¹¹⁰ Doktor Abdullah Nazir Ahmad. Abu Ja'far Tahoviy. -Damashq. Doru-l-qalam, 1991. -B. 205

¹¹¹ Sagdiyev H. Abu Ja'far Tahoviyning "Aqidatu-t-Tahoviyya" asari va uning sharhlari – hanafiylik ta'limotiga oid manba. -B.47.

¹¹² Doktor Abdullah Nazir Ahmad. Abu Ja'far Tahoviy. -Damashq. Doru-l-qalam, 1991. -B. 205.

¹¹³ Sezgin. Geschichte des arabischen schrifttums. Leiden: E.J.Brill, 1967. -B. 441.

¹¹⁴ Sezgin. Geschichte des arabischen schrifttums. Leiden: E.J. Brill, 1967. -B. 441.

nashr qilingan. Asarning avvalida sanadi keltirilgan bo'lib, Imom Tahoviyga uchta yo'l bilan yetib boradi¹¹⁵.

11. "Ar-Radd a'la kitobi-l-mudallisine". Mazkur asar Abu Ali Husayn ibn Ali Karabusiyning "Kitabu-l-mudallisine" nomli kitobiga raddiya sifatida yozilgan. "Kitabu-l-mudallisine" asarida Karabusiy sunnatni buzib kursatishga xarakat qilgan. U o'z mazhabida bo'limgan barcha roviylarni obro'sizlantirishga uringan. Ahmad ibn Hanbal kitob bilan tanishib chikadi va unda Karabusiy Abu Hanifani ta'na qilgani, Hasan ibi Solixni mu'tabar (ishonchli), deb hisoblaganini aytib o'tadi. Karabusiy o'z fikrini kuvvatlab, "Agar kimdir Hasan (ibn Solih)ni xavorij desa, demak (Abdulloh) Ibn Zubayr ham shu qatorga qo'shilishi kerak", degan. Buni o'qigan Ahmad ibn Hanbal: "Bu kishi (Karabusiy) sunnatning dushmanlariga qo'llanma tayyorlabdi, ular buni inkor qilmaydilar. O'zingizni bu jirkanch kitobdan asrang", deydi. Tahoviy bu kitobga batafsil raddiya yozib, satrma-satr raddiyalar berib ketadi¹¹⁶.

Yuqorida Imom Tahoviyning ilmiy merosi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha asarlari haqida ma'lumot berildi. Quyida allomaning tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan, lekin hozirgi kunimizgacha yetib kelmagan ba'zi asarlarini keltirib o'tamiz:

"Ahkamu-l-Qiron (Kasrali qof bilan)", "Axbaru Abi Hanifata va asxobixi"¹¹⁷, "Ixtilafu-r-rivayati a'la mazhabi-l-Kufiyyin"¹¹⁸, "Kitabu-l-ashriba"¹¹⁹, "Tarihu-l-kabir"¹²⁰, "Al-Hikayatu va-n-navodir"¹²¹, "Hukmu arzi Makka"¹²², "Ar-Roddu a'la Abi Ubayd fiyma axtoa fiyhi fi kitabi-n Nasab"¹²³, "Ar-Roddu a'la Iysa ibi A'ban"¹²⁴.

Buyuk imom Abu Ja'far at-Tahoviy rahimahulloh Misrda 321 yil 5 zulqa'da (933 yil 27 oktabr)da vafot qilganlar. Qarofa qishlog'ida (Misr) dafn qilingan.

Alloh taolo buyuk imomni O'z rahmatiga olsin. U zotning ilmlaridan biz faqirlarni ham manfaatlantirsin!

¹¹⁵ Tahoviy. Sharx Mushkilu-l-Osor. -Bayrut: Muassasatu-r-Risala, 1994. -B.83.

¹¹⁶ Sagdiyev H. Abu Ja'far Tahoviyning "Aqidatu-t-Tahoviyya" asari va uning sharhlari – hanafiylik ta'limotiga oid manba. -B.46.

¹¹⁷ Abdurro'fodir Qurashiy Hanafiy. Javahiru-l-muziyya. -Bayrut: Doru xijr, 1993. -J. 1. -B. 277.

¹¹⁸ Usha asar. J. 1. -B. 278.

¹¹⁹ Ibn Xallikon. Vafayotu-l-a'yona. Bayrut: Daru-l-kutubu-l-ilmiya, 1998.-J. 1. -B. 17.

¹²⁰ O'sha asar. -Bayrut: Daru-l-kutub al-ilmiya, 1998 J. 1. -B. 93.

¹²¹ Muhammad Abdulhay Lakanviy, Favoidu-l-bahiyya. -Bayrut: Matba'atu-s-sa'oda, 1906. -J. 1. -B. 32.

¹²² Abdurro'fodir Qurashiy Hanafiy. Javahiru-l-muziyya. Bayrut: Doru hijr, 1993. J. 1. -B. 277.

¹²³ Ibn Xoyr Ishbiliy. Daru-l-gorbi-islamiy, 2009. Al-fixrist. -B. 292.

¹²⁴ Muhammad Zohid Kavshariy. Al-Hoviy fi sirati-t-Tahoviy. Matba'atu-l-anvor. -B. 39.